

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI



«TASDIQLAYMAN»

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori v.v.b. Sh.A.Boymuradov

20 10 yil «05»

Ro‘yxatga olindi:

№ 1 Bakalavriat

PD-60910300; 1.26

**ICHKI KASALLIKLAR. KASB KASALLIKLAR
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	900 000	–	Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
Ta’lim sohasi:	910 000	–	Sog‘liqni saqlash
Ta’lim yo‘nalishlari:	60910300	–	Pediatrica ishi

Fan/Modul kodi IKKK17-1207		O‘quv yili 2025/2026 2026/2027 2027/2028	Semestr 7-8-9, 12	ECTS/Kreditlar IK: 6 kr KK: 1 kr	
Fan/Modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari IK: 15 kun 6 soat KK: 3 kun 6 soat	
1.	Fan/Modul nomi	Auditoriya mashg‘ulotlar (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Ichki kasalliklar. Kasb kasalliklar	105	105	210	
	Ichki kasalliklar	22/68	90	180	
	Kasb kasalliklar	2/13	15	30	
2.	I. Fanning mazmuni Ichki kasalliklar – keng tarqalgan kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinik kechishi, laboratoriya, asbob-uskunalar, klinik ko‘rsatmalar yordamida tashxis qo‘yish, oqibati, asoratlari, oldini olish choralari, kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarda tezkor yordam ko‘rsatish, mustaqil ravishda tekshirish o‘tkazish, ishga layoqatliligini bilish, davolash asoslarini o‘rgatadigan modul bo‘lib, umumiy amaliyot shifokori-bakalavr mutaxassisligiga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir. Ushbu modul dasturi O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standarti va bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu modul dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘qitish jarayonida qo‘llagan holda, talabani nazariy ma’lumotidan amaliy ko‘nikmalarni bajarishga o‘rgatib, orttirilgan ko‘nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llashga imkon yaratadi. fanni o‘qitish uchun gistologiya, odam anatomiyasi, ichki kasalliklar modullari nazariy zamin bo‘lib xizmat qiladi. Ichki kasalliklar moduli keyinchalik boshqa klinik modullar uchun nazariy zamin bo‘lib xizmat ko‘rsatadi. Umumiy pediatr shifokori, ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kasb kasalliklari fanining ushbu dasturi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘qitish jarayonida qo‘llagan holda, talabani nazariy ma’lumotidan boshlang‘ich amaliy ko‘nikmalarni bajarishga o‘rgatib va orttirilgan ko‘nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llashga imkon yaratib, klinik				

fikrlash, kasalliklarni oldini olish, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun zamin yaratib beradi. Kasb kasalliklari modul va klinik jixatdan har xil kasb kasalliklarini o'rganadi. Bakalavr tayyorlashda dastur - sog'liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasalarida ish joyida zararli omillarning ta'sirida ishlovchi shaxslarning sog'lig'ini saqlash, kasb kasalliklarini boshlang'ich shakllarida erta tashxislash va ularni rejali ravishda dispanserizatsiyasini olib borish va kasb kasalliklarining oldini olish chora tadbirlarini amalga oshirish kabi amaliy ko'nikmalarini to'liq egallagan oilaviy shifokor tayyorlash uchun zamin yaratib beradi.

Fanni o'qitishdan maqsad – ichki kasalliklarning turli variantlarida, shuningdek, ba'zi keng tarqalgan kasalliklarning atipik kechishida, kam uchraydigan kasalliklarning tipik kechishida klinik tashxis qo'yish va uni asoslashni, ular asoratlarni oldini olish va standartlar asosida davolash ko'nikmasini shakllantirish.

“Kasb kasalliklari”ning asosiy bo'limlarini o'z ichiga oladi va tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalariga modulning nazariy asoslarini o'zlashtirish, kasb kasalliklaridagi asosiy xujjatlar turlarini, kasb kasalliklari tashxisini aniqlash ko'nikmalarini egallash, kasb kasalliklarida asosiy tashxis usullari va davolash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zamin yaratib beradi.

Fanning vazifasi – ichki kasalliklar etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tasnifi, klinik ko'rinishlari, qiyosiy tashxislash, asoratlari, davosi va profilaktikasi bo'yicha bilimlarni shakllantirish; a'zolar sistemasi bo'yicha kasallardan anamnez yig'ish va tekshirishlar o'tkazish malakasini rivojlantirish; kasalliklarning asosiy klinik mezonlarini aniqlashni o'rgatish; talabalarda dastlabki va klinik tashxis qo'yish, tekshirish rejasi va vrach taktikasini tuzish; laborator va instrumental tekshirish usullari natijalarini interpretatsiya qilishni o'rgatish; bemorga kompleks davo buyurish va davo samaradorligini aniqlash jarayonlarini o'rgatish.

Kasb kasalliklarining etiologik omillari, tasnifi, umumiy diagnostik prinsiplari bo'yicha bilimlarni shakllantirish; ish joyidagi kasbiy zararli omillar ta'siridan rivojlanadigan kasb kasalliklari bo'yicha zarur bo'lgan bilimlarni berish; kasb kasalliklarining diagnostik usullarini va unda ish joyining sanitar-gigienik tavsifini to'g'ri baholashni o'rgatish; kasb kasalliklariga chalingan bemorlarni davolash va mehnat layoqatini hal qilishni o'rganish; kasb kasalliklarini oldini olish chora tadbirlarini o'rgatish; ish joyida zararli va noxush omillar ta'sirida ishlovchi shaxslarning profilaktik tibbiy ko'riklarini tashkil qilish va o'tkazishni o'rgatish; aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishga o'rgatish.

II. Asosiy nazariy qism

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

Ichki kasalliklar:

7-semestr:

1-mavzu. Gipertoniya kasalligi. Etiologiyasi, patogenezi, patologik anatomiyasi, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini va elektrokardiogrammani interpretatsiya qilish, kasallik asoratlari, davolash standartlari va profilaktikasi.

2-mavzu. YuIK. Miokard infarkti. Kasallikning etiologiyasi, patogenezi, patologik anatomiyasi, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini va elektrokardiogrammani interpretatsiya qilish, davolash standartlari va profilaktikasi. YuIK miokard infarkti atipik kechish variantlari. Erta va kechki asoratlari. Kardiogen shok. O'tkir chap qorincha yetishmovchiligi. Tezkor terapiya.

3-mavzu. Yurak ritm va o'tkazuvchanligining buzilishi. Yurak aritmiyalari. Kasallikning etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, EKG tahlili, davolash standartlari va profilaktikasi. Yurak blokadalari. Etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, EKG tahlili, davolash standartlari va profilaktikasi.

8-semestr:

1-mavzu. Oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligi. Kasallikning etiologiyasi, patogenezi, patologik anatomiyasi, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, kasallikning asoratlari, davolash standartlari va profilaktikasi.

2-mavzu. Surunkali gepatit. Kasallikning etiologiyasi, patogenezi, patologik anatomiyasi, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, davolash standartlari va profilaktikasi.

3-mavzu. Jigar sirrozi. Jigar yetishmovchiligi. Etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, davolash standartlari. Jigar yetishmovchiligi. Jigar komasida shoshilinch terapiya.

4-mavzu. Glomerulonefritlar. Kasallikning etiologiyasi, patogenezi, patologik anatomiyasi, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, davolash standartlari va profilaktikasi.

9-semestr:

1-mavzu. Revmatoid artritis. Kasallikning etiologiyasi, patogenezi, patologik anatomiyasi, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, davolash standartlari va profilaktikasi.

	2-mavzu. Seronegativ spondiloartritlar: Bexterev kasalligi, Reaktiv artritlar, Psoriatik artrit. Etiologiya, patogenez, tasnifi, kechishi, klinikasi, asoratlari, diagnostikasi, diagnostik mezonlari. 3-mavzu. Podagra. Kasallikning etiologiyasi, patogenez, patologik anatomiyasi, tasnifi, klinikasi, tekshirish usullarini o'rganish, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, davolash standartlari va profilaktikasi. Parhezning ahamiyati. 4-mavzu. Sistemali qizil yugurik. Etiologiya, patogenez, tasnifi, kechishi, klinikasi, asoratlari, diagnostikasi, diagnostik me'zonlari, laborator tahlillar natijalarini interpretatsiya qilish, davolash standartlari. Kasb kasalliklar: 12-semestr: 1-mavzu. Kasb kasalliklarining etiologik omillari, tasnifi, diagnostik prinsiplari va oldini olish chora tadbirlari. Ishlab chiqarishdagi zararli omillarining turlari. Kasb kasalliklari tasnifi. Kasb kasalliklarining umumiy diagnostik prinsiplari va kriteriyalari. Kasb kasalliklarini davolash va profilaktik chora-tadbirlari. Kasb kasalliklarining oldini olishda profilaktik tibbiy ko'riklarning ahamiyati. III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy mashg'ulotlar uchun quydagi mavzular tavsiya etiladi: Ichki kasalliklar: 7-semestr: 1-mavzu. Bronxitlar. Pnevmoniyalar 2-mavzu. Gipertoniya kasalligi. Simptomatik arterial gipertenzilar 3-mavzu. YuIK: Stenokardiyalar. Miokard infarkti. 4-mavzu. Yurak ritm buzilishi. Yurak o'tkazuvchanligining buzilishi 5-mavzu. O'tkir revmatik isitma. Yurak mitral va aortal nuqsonlari. 6-mavzu. Infeksion endokardit. 7-mavzu. Kardiomiopatiyalar. Surunkali yurak yetishmovchiligi 8-semestr: 1-mavzu. Gastritlar. Oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligi 2-mavzu. Surunkali xolesistit. Surunkali gepatit. 3-mavzu. Jigar sirrozi. Jigar yetishmovchiligi 4-mavzu. Surunkali pankreatit. Nospesifik yarali kolit. 5-mavzu. Surunkali pielonefrit. O'tkir va surunkali glomerulonefritlar. 6-mavzu. Nefrotik sindrom. 7-mavzu. Surunkali buyrak kasalligi 9-semestr:
--	--

1-mavzu. Revmatoid artrit. Deformatsiyalovchi osteoartroz

2-mavzu. Seronegativ spondiloartritlar. Reaktiv artritlar

3- mavzu. Podagra.

4-mavzu. Biriktiruvchi to‘qimaning diffuz kasalliklari: sistemali qizil yugurik.

5-mavzu. Biriktiruvchi to‘qimaning diffuz kasalliklari: Sistemali sklerodermiya, dermatomiozit.

6-mavzu. Tizimli vaskulitlar: Tugunchali periarteriit, Nospesifik aortaarteriit.

Kasb kasalliklar:

12-semestr:

1-mavzu. Kasb kasalliklarining etiologik omillari, tasnifi, diagnostik prinsiplari va oldini olish chora tadbirlari. Kasbiy zararli omillar ta’sirida ishlovchilarning profilaktik tibbiy ko‘riklarini tashkil qilish va o‘tkazish.

2-mavzu. Ishlab chiqarish changi ta’siridan rivojlanadigan o‘pka kasalliklari. Pnevmoniozlar. Silikoz. Kasbiy bronxit va kasbiy bronxial astmaning diagnostik kriteriylari.

3- mavzu. Ishlab chiqarishning fizik omillari ta’siridan rivojlanadigan kasb kasalliklari. Vibratsiya kasalligi. Kasbiy karlikning diagnostik kriteriylari.

Qo‘rg‘oshin, simob, organik erituvchilar va sanoatda ishlatiladigan boshqa kimyoviy moddalardan zaharlanishlar. Pestitsidlardan zaharlanishlar.

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari jihozlari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o‘tiladi. Mashg‘ulotlarda faol va interfaol usullar qo‘llaniladi. Tarqatma materiallar va axborotlar multimediya qurilmalari yordamida uzatiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha umumiy ko‘rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg‘ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o‘qituvchi tomonidan o‘tkaziladi.

Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg‘ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg‘otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo‘lga kiritish imkoniyatini ta’minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

	IV. Amaliy ko‘nikmalar: O‘quv (klinik) amaliyotini o‘tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan. Ichki kasalliklar: 7-8 semestr: 1. Arterial qon bosimni o‘lchash texnikasini o‘zlashtirish. 2. Nozologiyalarda EKG da patologik o‘zgarishlarni tahlil qilish. 3. Nozologiyalarda pikfluometriya o‘tkazish. 4. Anginoz statusda shoshilinch yordam ko‘rsatish. 5. Miokard infarkti shoshilinch yordam ko‘rsatish. 6. Surunkali buyrak kasalligida koptokchalar filtratsiyasi tezligini hisoblash. (Kokcroft-Golt formulasi). 7. Nefrotik krizda shoshilinch yordam ko‘rsatish. 9-semestr: 1. Bo‘g‘im burchagini aniqlash. 2. Bo‘g‘im aylanasi o‘lchash. 3. Kushelyovskiy 1,2,3 sinamalarini aniqlash. 12-semestr: 1. Kasb kasalligiga chalingan bemorni mustaqil kuratsiya qilish. 2. Bemorning mehnat sharoitini sanitar – gigienik tavsifini baholash va kasallikka sabab bo‘lgan kasbiy zararli omilni aniqlay olish. 3. Kasallik tarixini to‘ldirish.
3.	V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular Ichki kasalliklar: 7-8 semestr: 1. Tashqi nafas funksiyasini o‘rganish. 2. Gipotenziv dori vositalar klassifikatsiyasi. 3. Ateroskleroz. Miokard infarkti atipik kechishi. Erta va kechki asoratlari 4. Yurak ritm va o‘tkazuvchanligi buzilishining murakkab turlari: Frederik sindrom, WPW sindrom. 5. Trikuspidal klapan nuqsonlari. 6. Koronaroangiografiya. 7. Miokardit va perikarditlar. 8. Gastroezofageal refluks kasalligi. 9. O‘t yo‘llari diskineziyasi. 10. Jigar sirrozini tashxislashda fibroskan (elastometriya) instrumental tekshiruv usulining ahamiyati

- 11.Surunkali enterit. Surunkali kolit.
- 12.Diuretik dori vositalari klassifikatsiyasi. Ko'rsatma, qarshi ko'rsatma, nojo'ya ta'sirlari.
- 13.Buyrak amiloidozi.
- 14.O'rinbosar terapiya: gemodializ, plazmaferoz. Buyrak tansplantatsiyasi.

Ichki kasalliklar:

9-semestr:

- 15.Bo'g'im kasalliklarini zamonaviy tekshirish usullari.
- 16.Bo'g'im sindromini qiyosiy taqqoslash.
- 17.Osteoporoz
- 18.Antifosfolipid sindrom.
- 19.Yallig'lanishga qarshi nosteroid va steroid dori vositalari klassifikatsiyasi.
Qarshi ko'rsatma va nojo'ya ta'sirlari.
- 20.Tizimli vaskulitlar: Gudpascher sindromi, Vegener granelamatozi.
Shenleyn-Genox kasalligi.

Kasb kasalliklar:

12-semestr:

- 21.Kasb kasalliklarining etiologik omillari, umumiy diagnostik prinsiplari va oldini olish chora-tadbirlari va sanitariya vrachining vazifalari.
- 22.Pnevmokoniozlar.
- 23.Silikoz.
- 24.Kasbiy bronxitlar.
- 25.Kasbiy bronxial astma.
- 26.Vibratsiya kasalligi.
- 27.Shovqinning organizmga ta'siri – kasbiy koxlear nevrit.
- 28.Tayanch-harakat apparatining kasb kasalliklari.
- 29.Pestitsidlardan o'tkir zaharlanish.
- 30.Pestitsidlardan surunkali zaharlanish.
- 31.Qo'rg'oshindan surunkali zaharlanish.
- 32.Simobdan surunkali zaharlanish.
- 33.Organik eritmalardan o'tkir va surunkali zaharlanish.
- 34.Ish joyida zararli va noxush omillar ta'sirida ishlaydigan ishchilarning dastlabki va davriy tibbiy ko'riklarini tashkil qilish va o'tkazish.
- 35.Kasb kasalliklarida vrachlik mehnat ekspertizasi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

fan bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil

	shaklda amalga oshiriladi: 36. berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash; 37. modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish; 38. ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash; 39. vaziyatli va klinik muammollarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish; 40. keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) yechish; 41. grafik organayzerlash ishlab chiqish va to'ldirish; 42. krossvordlar tuzish va yechish; 43. prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustaqil ish jarayonida keng qo'llash va h.k. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar: fan bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi: - auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajer, mulyaj va simulyatsion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish; - aholi orasida sanitar oqartuv ishlarni suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish; - ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish; - berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash va uni taqdim etish; - fanning (modulning) bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish; - vaziyatli va klinik muammollarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish; - Keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) yechish, modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish.
4.	VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • eng ko'p tarqalgan nafas olish a'zolari va yurak qon-tomir kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi, klinikasi, asoratlarini bilish, kasallikka tashxis qo'yish, tekshiruv va kompleks davolash rejasini tuzish; • balg'amni bakteriologik ekish, plevra bo'shlig'ini punksiyasi,

bronxografiya, spiroografiya, broxoskopiya, exokardiografiya, yurak qon tomirlari dopplerografiyasi raqamli rentgenografiya, kompyuter tomografiya, yadro-magnit rezonans tomografiya, angiografiya va yurak kateterizatsiyasi to'g'risida **haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim).**

- bemorlardan anamnestik ma'lumotlarni yig'a bilish (kasallik va hayot anamnezi). Fizikal tekshiruv usullariga asoslangan holda bemorlarni organlar bo'yicha umumiy ko'rikdan o'tkazish;
- taxminiy tashxisni shakllantirish va asoslash, bemorni tekshirish rejasini tuzish;
- umumiy klinik laborator tekshiruvlar natijalarini: umumiy qon va siydik tahlili, qonning bioximik tahlili, umumiy balg'am tahlili, natijalarini interpretatsiya qila olish;
- klinik va yakuniy tashxis qo'yish, tashxisni asoslash, rejali davoni tavsiya etishni, kasallik asoratlari va ularning oldini olishni **bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma).**
- yurak qon-tomir tizimi kasalliklarini tekshirish;
- bemorni professional so'roq va ko'rikdan o'tkazish;
- nafas olish hamda yurak qon-tomirlari tizimi kasalliklarida instrumental tekshiruv usullari: ko'krak qafasining rentgenografiyasi, tashqi nafas faoliyatini tekshirish, pikfluometriya, qon bosimini to'g'ri o'lchash, EKG olish va natijani interpretatsiya qilish, ExoKG tekshiruvi natijalarini tahlil qilish;
- kasallik tarixini to'g'ri yuritish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka).**

Semestr yakunida:

- eng ko'p tarqalgan revmatologik, gastroenterologik, nefrologik, kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, klassifikatsiyasi klinikasi, asoratlarini bilish, qiyosiy taqqoslash, kasallikka tashxis qo'yish, tekshiruv va kompleks davolash rejasini tuzish;
- artroskopiya, teri-mushak loskuti biopsiyasi, me'da-ichak traktini endoskopik tekshiruvi, umumiy va ekskretor uroografiya, buyrak arteriyalari angiografiyasi qorin bo'shlig'i punksiyasi to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi; (bilim).**
- bemorlardan anamnestik ma'lumotlarni yig'a bilish (kasallik va hayot anamnezi), fizikal tekshiruv usullariga asoslangan holda bemorlarni organlar bo'yicha umumiy ko'rikdan o'tkazish;
- taxminiy tashxisni shakllantirish va asoslash, bemorni tekshirish rejasini

tuzish;

- umumiy klinik laborator tekshiruvlar natijalarini: umumiy qon va siydik tahlili, qonning bioximik tahlili, oshqozon shirasini tekshirish, timol va sulema sinamalari, Zimniskiy va Nechiporenko sinamalarini koprogramma, axlatning bakteriologik ekma natijalarini interpretatsiya qila olish;
- klinik va yakuniy tashxis qo'yish va asoslash, rejali davolashni tavsiya etishni, kasallik asoratlari va ularning oldini olishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)***.
- revmatologik, gastroenterologik, nefrologik kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni tekshirish;
- bemorni professional so'roq va ko'rikdan o'tkazish;
- qonning umumiy, bioximik immunologik, serologik tahlili, sinovial suyuqlik tahlili natijalarini interpretatsiya qilish, me'da-ichak traktini endoskopik tekshiruvi, bariyli rentgenografiya, umumiy va ekskretor uroografiya, ichki a'zolar UTT tekshiruvi natijalari asosida xulosa qilish;
- kasallik tarixini to'g'ri yuritish ***kabi malakalarga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak. (malaka)***.

Kasb kasalliklar:

- kasb kasalliklarining nazariy etio-patogenetik asoslari, kasb kasalliklarining barvaqt ko'rinishlarini aniqlash usullari va diagnostik kriteriylari;
- ko'p uchraydigan kasbiy kasalliklarning tasnifi, asosiy klinik sindromlari;
- kasb kasalliklarida etiotrop, antidot va boshqa davolash usullari;
- kasb kasalliklarida bemorlarning mehnat layoqati ekspertizasining alohidalik tomonlari;
- kasb kasalliklarini oldini olishga qaratilgan texnologik, sanitar-gigienik va tibbiy-profilaktik chora tadbirlar ***haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)***.
- bemordan to'g'ri anamnez va shikoyat yig'ishni, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish;
- bemorni tekshirishni bilish;
- tegishli klinik va laborator - instrumental tekshiruvlarning natijalarini tahlil qilish;
- bemorning hujjatlarini (mehnat daftarchasining nusxasi, ish sharoitining sanitar-gigienik tavsifi, ambulator kartadan olingan ko'chirma) tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan kasb kasalliklari ro'yxati va tasnifiga muvofiq klinik tashxisni ta'riflash va asoslash;
- bemorga davolash rejasini belgilashi va mehnat layoqatini to'g'ri

	ekspertiza qilishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma).</i> • bemorni mustaqil kuratsiya qilish; • bemorning mehnat sharoitini sanitar – gigienik tavsifini baholash va kasallikka sabab bo‘lgan kasbiy zararli omilni aniqlay olish; • kasallik tarixini to‘ldirish kabi <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. (malaka).</i>
5.	VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari • Interfaol o‘yinlar; • Seminar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar; • Guruhlarda ishlash; • Taqdimotlarni kiritish; • Individual loyihalar; • Jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
6.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha yozma yoki og‘zaki va test ishni muvoffaqiyatli topshirish.
7.	Asosiy adabiyotlar Ichki kasalliklar: 1. Gadaev A.G. Ichki kasalliklar, Darslik. T: Turon Zamin Ziyo, 2021 y. (lotin). 2. Рябов С.И. Внутренние болезни. 1-2- т. Учебное пособие. Санкт-Петербург. 2015г. Kasb kasalliklar: 3. Maxmudova Sh.K. Kasb kasalliklari. Darslik. – Toshkent. “Yangi asr avlodi. 2011 y.(lotin tilida). 4. Maxmudova Sh.K. Kasb kasalliklari. Darslik. – Toshkent.“Yangi asr avlodi”. 2019 y. (kirill va lotin tillarida). Qo‘shimcha adabiyotlar Ichki kasalliklar: 5. Gadaev A.G. Karimov M.Sh. Ichki kasalliklar propedevtikasi. Darslik. T. 2018. 6. Gadaev A.G. Ichki kasalliklar, Darslik. T: Turon Zamin Ziyo, 2018 y. 7. Nabiyeva D.A., Muhammadiyeva S.M. Bihiktiruvchi to‘qimaning tizimli kasalliklari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2020 y. 8. Umarova Z.F. Nefrologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2021 y.

9. Gadaev A.G., Rozikov A.A., Raximova M.E. Amaliy elektrokardiografiya. -Toshkent. Turon Zamin Ziyo nashriyoti. 2016 y.
10. Kodirova Sh.A. Bronxoektatik kasallik. Plevritlar. O'quv qo'llanma. Toshkent, TTA Matbuot uyi, 2023 y.
11. Jabbarov O.O., Kodirova Sh.A. Arterial gipertenziya: tashxislar va davolash. O'quv qo'llanma. Toshkent, TTA Matbuot uyi, 2022 y.
12. Мухин Н.А., Моисеев В.И. Пропедевтика внутренних болезней. Учебное пособие. Москва. 2012 г.
13. Гордиенко А.В. Госпитальная терапия, Учебник. Санкт-Петербург. 2016 г.
14. Мурашко В.В., Струтынский А.В. Электрокардиография. Учебное пособие. Москва. 2019г.
15. Ройтберг Г.Е., Струтынский А.В. Внутренние болезни. Система органов дыхания. Учебное пособие. Москва. 2018г. (электрон).
16. Ройтберг Г.Е., Струтынский А.В. Внутренние болезни. Сердечно-сосудистая система. Учебное пособие. Москва. 2019г.
17. Ройтберг Г.Е., Струтынский А.В. Внутренние болезни. Система органов пищеварения. Учебное пособие. Москва. 2018г.
18. Моисеева В.С., Мартынова А.И., Мухина Н.А. Внутренние болезни. Учебник в двух томах. Москва. 2012 г.
19. Harrison's Textbook Principles of Internal Medicine-19th Edition – 2015.

Kasb kasalliklar:

1. Kosarev V.V., Babanov S.A. Kasbiy kasalliklar: Proc. nafaqa. - M .: Vuzovskiy darsligi: INFRA-M, 2011
2. Agzamova G.S., Tashmuxeimedova M.K. va boshk. Kasb kasalliklarning zamonaviy holati va uning profilaktika chora-tadbirlari . Metodik ko'llanma. – Toshkent. “Asr-Matbuot”. 2017 y.
3. Dennis Kasper, Anthony Fauci, Stephen Hauser, Dan Longo, J Jameson, Joseph Loscalzo. - Harrison's Principles of Internal Medicine. 19/E. (Vol. 1 Vol2) - USA. 2015 u.
4. Izmerov N.F. Rukovodstvo po professionalnym boleznyam. Uchebnik.-T.I, II. Moskva.” Meditsina”. 2010 g.
5. Maxmudova Sh.K. Kasb kasalliklari klinik protokollari . Toshkent. “ Yangi asr avlodi”. 2016 y.

Internet saytlari:

Ichki kasalliklar:

20. www.medlook.ru
21. www.medbok.ru
22. www.medicum.ru
23. www.medtext.ru
24. www.medkniga.ru
25. www.cardioline.ru

	26. www: http://buks.ru/book; http:// asp 2013. ru/medicine/01/medicine 100645; 27. http:// medprom.ru/ medprom; http:// 28. www.docs.pp.ru 29. www.ziyonet.uz; 30. www.lex.uz; 31. www. cardiosite.ru; 32. www. cardiologia.ru; 33. www.bilim.uz; 34. www.gov.uz; 35. www.mf.uz. Kasb kasalliklar: 1. www. prof. bolezni. com. 2. www.ziyonet.uz; 3. www. info@ minzdrav.uz 4. www.info@tma.uz 5. www.lex.uz; 6. www.bilim.uz; 7. www.gov.uz; 8. www.mf.uz.
8.	Fanning o‘quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasining 2024 yil <u>08.05.2024</u> dagi <u>03311</u> -sonli buyrug‘i (buyruqning 2 - ilovasi) bilan tasdiqlangan. O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova Pediatrica, stomatologiya, xalq tabobati, tibbiy pedagogika va surdotarjimonlik fakulteti dekani A.A. Xamrayev
9.	Fan/Modul uchun ma’sullar: Jabbarov O.O. – TTA 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrası kafedrası mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor Tursunova L.D. – TTA 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrası dotsenti, PhD. Agzamova G.S. – TTA, 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb patologiyasi kafedrası dotsenti, t.f.d. Tashmuxamedova M.K. – TTA, 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb patologiyasi kafedrası katta o‘qituvchisi

10.	Taqrizchilar: Ichki taqrizchi: A.A.Xamrayev – TTA, 2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya kafedrası mudiri, t.f.d., professor. Tashqi taqrizchi: Sobirov M.A. – TDSTI 2-sonli terapevtik yo‘nalishdagi fanlar kafedrası mudiri, professor, t.f.d.
-----	---